



# International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

*International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.*

## **Auditorlik Tekshiruvini Rejalashtirishning Muhimligi Va Afzalliklari**

**Turumova Dildora Abdumannonovna**

Jizzax politexnika instituti "Iqtisodiyot va menejment" kafedrası o'qituvchisi,  
dildoraturumova1985@gmail.com

**Saparboyeva Madinabonu Abror qizi**

Madinaabrorovna77@gmail.com

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqola auditorlik faoliyatini rejalashtirishning afzalliklariga bag'ishlangan. Auditorlik faoliyatini samarali rejalashtirish, tashkilotlarning moliyaviy holatini yaxshilash, xatolarni oldini olish va resurslarni oqilona taqsimlash imkonini beradi. Rejalashtirish jarayoni auditorlar uchun nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy tajribalarni ham o'z ichiga oladi. Bu maqolada auditorlik rejalashtirishining asosiy tamoyillari, afzalliklari, shuningdek, muvaffaqiyatli auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan elementlar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Auditorlik faoliyati, rejalashtirish, moliyaviy holat, xatolarni oldini olish, resurslarni taqsimlash, auditorlik tamoyillari, muvaffaqiyatli tekshiruv, tashkilotlar, amaliy tajriba, nazariy bilimlar, auditni rejalashtirish tamoyillari, auditni dastlabki rejalashtirish, auditning umumiy rejasini tuzish, auditorlik guruhini shakllantirish, audit dasturi, audit amallari, tekshiruvda risk va muhimlikni qo'llash tartibi, audit nazoratining bosqichlari, auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonun.

Auditor, kompaniya, tashkilot yoki xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyatini tekshirishda xolis va ishonchli xulosalar berishi uchun puxta rejalashtirilgan samarali bir reja zarur. Auditor rejasining mazmuni auditorning o'ziga qo'ygan maqsadlari va ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun belgilangan aniq vazifalardan kelib chiqadi. Umuman olganda, audit maqsadini quyidagicha ifodalash mumkin: tashkilotning moliyaviy hisobotini tahlil qilish, yillik moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini ishonchli dalillarga asoslanib aniqlash va tasdiqlash, valyuta operatsiyalarini tekshirish, aktsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar emissiyasiga oid ma'lumotlarni tasdiqlash, korxonaning moliyaviy barqarorligini oshirish uchun takliflar ishlab chiqish, shuningdek, iqtisodiyot va moliyaviy huquq sohasidagi yangi qonunchilik hujjatlari bo'yicha aniq maslahatlar berish.

Auditorlik tashkiloti biror korxonani tekshirib, baholaganida, yakuniy xulosani o'z tamoyillariga asoslanib, ya'ni xolis va mustaqil tarzda taqdim etadi. Auditor har qanday tashkilotni tekshirishda, o'sha tashkilotning biznesini yaxshi bilishi zarur. Buning uchun u moliyaviy hisobotlarda yoki auditorlik hisobotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan voqealarni, operatsiyalarni va metodlarni

aniqlab, tushunishi kerak. Auditorlar tekshirayotgan tashkilotga, uning ofislariga borib, yillik hisobotlarini ko'rib, korxonada boshqaruvi va shtati bilan muzokaralarga kirishishi mumkin. Shuningdek, odatda internet orqali jamoatchilik yangiliklari va axborotlariga kirib, ma'lumotlar bilan tanishishi mumkin. Agar tashkilot avvaldan tanish bo'lsa, avvalgi yillarga oid ish hujjatlarini ko'rib chiqish lozim.

Agar auditor tekshirayotgan korxonada yangi bo'lsa auditor avvalgi auditor bilan maslahatlashish va oldindan axborot qidiruvini kengaytirish lozim. Auditorlar tekshirishdan oldin tekshirayotgan korxonalar haqidagi o'z axborotlarini 3 ta asosiy manbadan oladilar:

1. Ularning mijozlar bilan tajribalari umum olish mumkin bo'lgan axborotlar;
2. Mijozning o'zidan mustaqil ravishda axborotlarni baholash uchun foydalaniladigan metodlar;
3. Jamoatchilik ma'lumotlari bazasining qidirishdan variatsiyalanadi;

Auditorlik faoliyatining afzalliklari:

1. Sifatni oshirish: Rejalashtirilgan auditorlik jarayonlari orqali tekshirishlar yanada sifatli bo'ladi.
2. Xatolarni kamaytirish: Oldindan rejalashtirish jarayonida potentsial xatolarni aniqlash va oldini olish mumkin.
3. Resurslardan oqilona foydalanish: Auditorlar o'z vaqtini va boshqa resurslarini yanada samarali rejalashtirish orqali tejash imkoniyatiga ega bo'ladi.
4. Tashkilotning ishonchliligini oshirish: Muvaffaqiyatli auditorlik faoliyati tashkilotning moliyaviy ishonchliligini oshiradi va investorlar uchun jozibadorligini ta'minlaydi.

Auditor tekshirayotgan korxonasini boshqaruv nazoratini bilishi juda muhim. Boshqaruv nazoratini bilishi uchun auditor quyidagilarni bilib olishi kerak:

- Mijozning boshqaruvda tashkiliy tuzilmalarida va operatsiyalaridagi o'zgarishlar;
- Bazaning mijozga ta'sir qiluvchi ijtimoiy texnik va iqtisodiy omillarining joriy rivojlanishi;
- Joriy yoki kelgusidagi moliyaviy qiyinchiliklar yoki xisob muomalalari;
- Korxonada moliyaviy xisobotlarini xato yoki firibgarlik oqibatidagi moddiy jihatdan noto'g'ri yozishma (ariza) larga tasirchanligi;
- Bog'liq tomonlarning mavjudligi;
- Yangi yoki yopiq ko'chmas mulk va ishlab chiqarish korxonalarini vositalari;
- Texnologiyadagi mahsulotlar yoki ishlab chiqarish xizmatlari yoki taqsimlash kabi yaqindagi yoki osilib qolgan o'zgarishlar;
- Buxgalteriya tizimi va ichki boshqaruv tizimidagi o'zgarishlar;
- Mijozni yangi tekshirish.

Agar auditor yangi korxonani tekshirishga tayyorlansa, auditorlik firmasi o'sha korxonaning maqbuliligini aniqlash maqsadida to'liq tekshirish o'tkazadi. Auditor mustaqillikning etika talablariga va ma'lum vakolatlariga rioya qilsa, ishni qabul qiladi. Ba'zida auditor, korxonada boshqaruvi va asosiy a'zolari haqida ma'lumot olish uchun professional auditorlarni jalb qilishi yoki sud-buxgalteriya ekspertizasi bo'limidan foydalanishi mumkin. Agar avvalgi auditor mavjud bo'lmasa, yanada kengroq tekshiruvlar o'tkazilishi mumkin.

Ko'plab auditorlik firmalari har yili mavjud korxonalarini baholaydilar. Yuqorida muhokama qilingan tekshirishlarga qo'shimcha ravishda, auditor auditning hajmi, fikrlar va yig'imlar turlari, auditorlik firmasi, mijoz va boshqaruv o'rtasidagi nizolar kabi har qanday oldingi nizolarni ko'rib chiqadi. Ushbu to'rt omil, munosabatlarning davom etishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Auditor, majburiyatlarni davom ettirish maqsadida, avvalgi yillarda o'tkazilgan tekshirishlar natijalaridan

to'plangan axborotlarni yangilab, qayta baholashi kerak. Shuningdek, auditor oxirgi auditdan keyin yuzaga kelgan jiddiy o'zgarishlarni aniqlash uchun bir xil protseduralarni bajarishi lozim.

Auditorlik faoliyatida rejaning to'g'ri tuzilishi va samarali tashkil etilishi juda muhimdir. Auditorlik tekshiruvlarini rejalashtirish jarayoni "Auditni rejalashtirish" deb nomlangan 300-sonli auditorlik faoliyatining xalqaro standarti asosida amalga oshiriladi. Auditorlik tekshiruvlari kam vaqt talab qilishi va iqtisodiy jihatdan samarali bo'lishi uchun rejaning optimal tuzilishi zarur. Bu maqsadda, auditni rejalashtirishning maqsadini, bosqichlarini to'liq o'rganish, muammolarga xolisona baho berish va ularni bartaraf etish asosida rejalashtirish jarayonini takomillashtirish zarur. Shuningdek, huquqiy bazani mustahkamlash talab etiladi. Ta'kidlash joizki, auditorlik xizmatining sifatli bo'lishi to'g'ri rejalashtirishga bevosita bog'liqdir. "Auditni rejalashtirish" nomli XAS asosida amalga oshirilishi majburiy hisoblanganiga qaramay, amaliyotda auditorlik tashkilotlari ushbu standart talablariga yoki belgilangan tartib-qoidalarga to'liq amal qilmayotganini ko'rsatadi, shuningdek, har bir tekshiruvning umumiy rejasi va dasturi turli yondashuvlar asosida tayyorlanmoqda.

"Auditni rejalashtirish" XASga ko'ra, auditorlik tekshiruvini o'tkazishning boshlang'ich bosqichi hisoblanadi. Auditorlar reja tuzishdan avval tekshiruv jarayonini boshlamasliklari va auditorlik tekshiruvining barcha bosqichlarida umumiy reja va dasturda belgilangan vazifalarni qat'iy ravishda bajarishlari shart.

Standartga muvofiq, auditorlik tekshiruvini rejalashtirish jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi lozim:

1. Auditni dastlabki rejalashtirish;
2. Auditning umumiy rejasini tayyorlash;
3. Audit dasturini tayyorlash.

Qonunchilikda belgilangan tartibga muvofiq, auditorlik tekshiruvini rejalashtirish jarayonida auditorlik tashkiloti tomonidan foydalaniladigan me'yorlar XAS asosida amalga oshirilishi shart. Biroq, amaliyotda auditorlik tashkilotlari tomonidan ushbu standart talablariga yoki belgilangan tartib-qoidalarga to'liq rioya qilinmayapti, shuningdek, har bir tekshiruvning umumiy rejasi va dasturi turli yondashuvlar asosida tayyorlanmoqda. Auditorlar tomonidan mazkur standartga muvofiq rejalashtirilgan auditorlik tekshiruvlari natijasida, tekshiruvlar oldindan aniq belgilangan ketma-ketlikda o'tkaziladi, auditorlik shartnomasida ko'rsatilgan muddatda yakunlanadi, auditorlar tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xato va kamchiliklar kamaytiriladi, shuningdek, tekshiruv jarayoni tartibli ravishda amalga oshirilishi ta'minlanadi. Rejalashtirish auditorlik guruhi rahbari tomonidan audit o'tkazishning umumiy va xususiy tamoyillariga muvofiq bo'lishi lozim.

1. uyg'unlik (komplekslik);
2. uzluksizlik;
3. maqbullik.

Auditor uchun dastlabki rejalashtirish jarayonida quyidagilar xo'jalik yurituvchi sub'ekt to'g'risida axborot olish manbalari bo'lib hisoblanadi:

- Xo'jalik yurituvchi sub'ekt ustavi;
- Xo'jalik yurituvchi sub'ektni ro'yxatga olish to'g'risidagi hujjatlar;
- Xo'jalik yurituvchi sub'ektning hisob siyosatini va unga o'zgartirishlar kiritishni tartibga soluvchi hujjatlar;
- Xo'jalik yurituvchi sub'ektni ro'yxatga olish to'g'risidagi hujjatlar;
- Kuzatuv va (yoki) ijroiya organlari aktsiyadorlar yig'ilishlarining yoxud xo'jalik yurituvchi sub'ektning boshqa shu singari boshqaruv organlari majlislari bayonnomalari;

- Buxgalteriya hisobotlari;
- Statistika hisobotlari;
- Xo'jalik yurituvchi sub'ektning shartnomalari va bitimlari;
- Auditor maslahatchilarining ichki hisobotlari;
- Korxonaning filiallari va shu'ba jamiyatlari ro'yxati;
- Xo'jalik yurituvchi sub'ektning ishlab chiqarish va tashkiliy tuzilishlarini tartibga soladigan hujjatlar, uning filiallari va shu'ba jamiyatlari ro'yxati";
- Auditorlik tashkiloti mutaxassislari malaka darajasi bo'yicha ma'lumotlar (Auditorlik tekshiruv buyurtmachisi faoliyat sohasini tushunadigan mutaxassislar etarligini baholash va ekspert xizmatiga bo'lgan ehtiyojni aniqlash maqsadida).

Auditor korxonaga bilan shartnoma tuzgandan so'ng, auditorlik tashkiloti rahbari reja tuzishi va uni taqdim etishi zarur. Ushbu umumiy reja audit dasturini amalga oshirishning asosiy manbai yoki uslubiy va me'yoriy asos bo'lib xizmat qilishi kerak. Auditorlik tekshiruvini o'tkazish jarayonida umumiy rejaning ba'zi qoidalariga o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar kiritish zarurati paydo bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda, kiritiladigan o'zgartirishlar mazmuni va sabablari rejada batafsil aks ettirilishi lozim. Xulosa qilib aytganda, har bir ishni boshlashdan oldin reja tuzish, natijada ishimiz samarali bo'lishiga yordam beradi. Auditorlik tekshiruv ham shunday, agar auditor korxonaga tekshirishni aniq reja asosida amalga oshirsa va auditorlik prinsiplari hamda xalqaro standartlarga rioya qilsa, tekshiruv maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Туйчиев А., Кузиев И., Авлокулов А., Шеримбетов И., Авазов И. Аудит. Дарслик-Т.: "Iqtisod-Moliya", 2019 й. – 530 б.
2. Кузиев И., Туйчиев А., Хожиев М., Якубов М. Внутренний аудит. "IQTISOD-MOLIYA" 2019 г. – 421 стр."
3. O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri). 2021 yil 25 fevral. O'RQ-677-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 4 avgustdagi qarori. Sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-5210-son Qarori. <http://lex.uz>
5. Турумова, Д. (2022). Банк назоратида ички ва ташқи аудит ўтказишнинг аҳамияти. Science and Education, 3(12), 1013-1022.
6. Турумова, Д. (2022). Банк кредитлари аудитини такомиллаштириш масалалари. Science and Education, 3(10), 640-645.
7. Abdumannonovna, T. D. (2023). WAYS OF DEVELOPING THE INTERNAL AUDIT SERVICE IN BUSINESS ENTITIES. JOURNAL OF EDUCATION, VALUE, 2(8), 37-40.
8. Turumova, D. A., & o'g'li Tolibboyev, Q. G. (2023). AUDITORLIK FAOLIYATIDA TANLAB TEKSHIRISHNING MOHIYATI. Educational Research in Universal Sciences, 2(6), 234-240.
9. Turumova, D. A. (2023). O 'ZBEKISTONDA ICHKI NAZORAT TIZIMI–AUDITORLIK TEKSHIRUVI JARAYONINING ASOSIY ELEMENTI. Educational Research in Universal Sciences, 2(4), 608-612.
10. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK TEKSHIRUVIDA DARAJASI. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 2(14), 60-62.

11. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITING MOLIVAVIY ZARURLIGI. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(34), 290-294.
12. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK REJALASHTIRISH. INNOVATIVE DEVELOPMENTS EDUCATION, 2(22), 243-248.
13. Abdumannonovna, T. D. (2024). IMPORTANCE AND ROLE OF INTERNAL AUDIT IN ENTERPRISES. JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE, 3(1), 6-9.
14. Abdumannonovna, T. D. (2024). DEVELOPMENT AND USEFUL ASPECTS OF AUDITING ACTIVITY IN UZBEKISTAN. JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE, 3(1), 15-13
15. Abdumannonovna, T. D., & Abdurasul, A. D. (2024). FORMATION OF STATE FINANCE AND AUDIT ACTIVITY IN THE EARLY PERIODS IN UZBEKISTAN. JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE, 3(1), 34-37.
16. Abdumannonovna, T. D., & Sherzod, K. S. (2024). SIGNIFICANCE AND ROLE OF INTERNATIONAL AUDITING STANDARDS. JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE, 3(1), 57-60.
17. Abdumannonovna, T. D. (2024). FRAUD DETECTION IN AN AUDIT. JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE, 3(1), 136-140.